

FARG‘ONA VODIYSI ARXEOLOGIK TADQIQOTLARIDA ALEKSANDR NATANOVICH BERNSHTAM ILMIY FAOLIYATI

Mahliyo Turdixo‘jayeva

TDSHU doktoranti

ANNOTATSIYA

Maqolada etnograf, arxeolog, sharqshunos olim A.N.Bernshtamning arxeologik faoliyati va Farg‘ona vodiysi arxeologiyasiga qo‘shgan munosib hissasi ilmiy tahlil etiladi. Shuningdek, maqolada farg‘onashunos olimning vodiya amalga oshirgan arxeologik ekspeditsiyalari hamda ularning natijalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *A.N.Bernshtam, arxeologiya, O‘rta Osiyo arxeologiyasi, arxeologik ekspeditsiya, Farg‘ona arxeologiyasi, Pomir-Oloy arxeologik ekspeditsiyasi.*

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется археологическая деятельность этнографа, археолога, востоковеда А. Н. Бернштама и его значительный вклад в археологию Ферганской долины. Также в статье описаны археологические экспедиции ученого-фарганолога в долину и их результаты.

Ключевые слова: *А. Н. Бернштам, археология, среднеазиатская археология, археологическая экспедиция, ферганская археология, Памир-Алойская археологическая экспедиция.*

ABSTRACT

The article analyzes the archaeological activity of the ethnographer, archaeologist, orientalist A. N. Bernshtam and his significant contribution to the archeology of the Ferghana Valley. The article also describes the archaeological expeditions of the farganologist to the valley and their results.

Keywords: *A.N. Bernshtam, archeology, Central Asian archeology, archaeological expedition, Ferghana archeology, Pamir-Aloy archaeological expedition.*

KIRISH

“Raqiblarimga qarshi kurashda,
men yomon ko‘rganlarga qarshi kurashda
men hamma joyda sudralib yuraman
va agar dushman arxeologiyaga yashiringan bo‘lsa,
men arxeologiyani o‘rganaman va
uni arxeologiya bilan mag‘lub qilaman”
(A.N.Bernshtam)

Oʻrta Osiyo tarixi va arxeologiyasining taniqli tadqiqotchisi *A.N.Bernshtam qisqa vaqt ichida katta miqdordagi ilmiy materiallar qoldira olgan fargʻonashunosdir. Oʻrta Osiyoning xususan, Fargʻona vodiysining qadimgi va oʻrta asrlar tarixi va arxeologiyasining tarixiy-madaniy holatlarini rivojlantirish uchun poydevor yaratdi². U tarixchi-sharqshunos sifatida S.E.Malov va A.N.Samoyilovichning eng koʻzga koʻringan vakillari boʻlgan rivojlangan sharq maktabining ajoyib ilmiy anʼanalarini tadqiq etgan³. Olimning Oʻrta Osiyo tarixi va arxeologiyasi, ayniqsa koʻchmanchi xalqlar tarixi boʻyicha asarlari katta ahamiyatga ega⁴. Bernshtam ishining eng muhim qismi arxeologik tadqiqotlar va ekspeditsiyalar bilan ajralib turadi⁵. Uning ilmiy merosi olimning ilmiy qiziqishlari doirasi juda keng ekanligidan dalolat beradi. A.N. Bernshtamning har yillik arxeologik tadqiqotlar toʻplami uning XX asr oʻrtalarida Oʻrta Osiyo tarixi va madaniyatini oʻrganishda ancha ilgari borganligini isbotlay olgan. Oʻrta Osiyoda chorak asr davomida faoliyat yuritgan arxeolog, maʼlum maʼnoda ekspeditsiyalarga rahbarlik qilishi man etilgan qadimgi Qirgʻizistonning kashfiyotchisi deya Berntashmga Masson baho bergan⁶. Darhaqiqat, u etnogenez, Oʻrta Osiyo va Qozogʻiston turkiy xalqlarining qadimgi tarixi va madaniyati, shu jumladan etnologiya, tilshunoslik, arxitektura, folklor, numizmatika va epigrafiya va albatta arxeologiya sohalarida olib borilayotgan tadqiqotlar bilan juda qiziqdi. Ularni har tomonlama tarixiy tekshirish uchun koʻp harakat qilgan. Arxeologik ishlari butun Oʻrta Osiyo mintaqasini qamrab oldi. Olim Semirechye, Janubiy Qozogʻiston, Kenkol vodiysi, Tyan-Shan, Pomir-Oloy va albatta Fargʻona hamda boshqa togʻli va pasttekisliklarda ishlar olib bordi. Xronologik nuqtai nazardan, tadqiqotchi qadimgi va oʻrta asrlar tarixining deyarli barcha davrlarini oʻrgana olgan⁷.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Alohida hududlarni oʻrganish (Fargʻona vodiysi va boshqalar) unga bir vaqtning oʻzida butun Oʻrta Osiyo tarixidagi muhim muammolarni yechishga yordam berdi.

* Aleksandr Natanovich Bernshtam 1910 yil 1 oktabr oyida Kerchda tavallud topgan etnograf, arxeolog va sharqshunos olimdir. Natanovich Oʻrta Osiyodagi eng yirik sovet tarixchilari va arxeologlaridan biri sifatida yorqin isteʼdodga, ish qobiliyatiga va maqsadga muvofiqlikka ega boʻlib, tarixiy sharqshunoslikning oʻnlab sohalarida katta oʻrin egallagan. Aleksandr Natanovich oʻzining ilmiy faoliyatini talabalik yillarida turkiy xalqlarning etnologi sifatida boshlagan va aspirantura yillarida (1931 - 1934) kuchli tilshunoslik boʻyicha tahsil olgan.

² Свиридов. А.Н. Эволюция взглядов А.Н. Бернштама на проблемы культурогенеза в Южном Казахстане и Средней Азии (конец I тыс. до н.э. - начало I тыс. н.э.)//Хроника, библиография, историография известия наук серия общественных наук. М-2010. № 1.–С.250

³ <https://silkadv.com/en/content/aleksandr-bernshtam>

⁴ Заднепровский Ю. А. Александр Натанович Бернштам // КСИИМК. 1960. Вып. 80. –С. 58.

⁵ Yrd. Doç. Dr. Cengiz Buyar .Türk tarihi araştırmacısı olarak. Bernştam ve eserleri// Manas sosyal araştırmalar dergisi 2016. –S.190.

⁶ Смирнов Н.Ю. Возвращёная рукопись (из публицистического наследия А.Н. Бернштама). // [Археологические вести. Вып. 17](#). СПб: 2011. –С. 353-365.

⁷ Александр Натанович Бернштам.//Краткие сообщения. о докладах и полевых исследованиях института истории материальной культуры. 80.М-1960.–С 5

Arxeologik manbalarga asoslanib, u bir nechta hududlarning qisqacha tarixini aytib bera olgan hamda yangi arxeologik madaniyatlarni joriy qildi. Asosiy ilmiy muammolarni o'rganishga, shuningdek individual arxeologik materiallarni umumlashtirishga hamda o'ziga ma'lum bo'lgan turli manbalarni, shu jumladan ekspeditsiyalarda, arxivlarda yoki nashr etilgan nashrlarda olgan arxeologik, etnografik, geografik va boshqa manbalarni jalb qilgan holda har tomonlama kirishdi. Bunday tadqiqot usuli, hatto kichik maqolalarda ham o'rganilgan tarixiy voqea to'g'risida yaxlit tasavvur berishga imkon berdi. Bugungi kunda ham ilmiy dunyo Bernshtam asarlarini katta hurmat bilan baholaydi⁸.

A.N. Bernshtamning Markaziy Tyan-Shan va Farg'ona-Oloyning tarixiy-arxeologik ocherklari asari 1941 va 1944-1948 yillardagi dala tadqiqotlari, asl topilmalar asosida yozilgan. O'sha yillardagi ekspeditsiyalar yangi arxeologik hududlarni – Arpa, Oqsoy, Oq-Tala va Pomir va Oloyning borish qiyin bo'lgan hududlarini tadqiq etgan⁹. Topilgan yodgorliklarning xronologik doirasi aniqlanib, A. N. Bernshtam Tyan-Shan va Farg'ona-Oloyning qadimgi aholisining tarixiy va madaniy o'tmishi masalalarini yoritib beradi, ularning etnik tasnifini qat'iy xronologik tartibda yoritadi. Shu bilan birga, topilgan material yozma manbalar ma'lumotlar bilan birgalikda ko'rib chiqiladi. “Qirg'iz SSR tarixi” ning birinchi jildida A.N. Bernshtamning qirg'izlar etnogenezi haqidagi nuqtai nazari to'g'ri bayon etilmaganligini ham ko'rish mumkin¹⁰. 1947-1948-yillarda A.N. Bernshtam boshchiligidagi Pomir-Oloy ekspeditsiyasi Pomir va Namangan viloyatida razvedka ishlarini olib bordi. Yu.A. Zadneprovskiy va S.S. Sorokin ishtirokidagi ushbu ekspeditsiya Tojikistondagi bir qancha qabrlarni o'rgandi, arxeologik yodgorliklarni ochdi¹¹

1946-1948-yillarda professor A.N. Bernshtam rahbarligida Pomir-Oloy arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari tomonidan o'tkazilgan qazuv ishlari asosida Axsikentning tarixiy arxeologik obyekt ekanligi xususida qiziqarli ma'lumotlar qo'lga kiritilgan. A. N. Bernshtam tadqiqot natijalariga asoslanib shaharda ilk hayot Kushon saltanati davrida boshlangan, biroq, Axsikentning gullab-yashnashi Turk xoqonligi davriga to'g'ri kelgan va keyingi davrlarda (IX–X asrlar) Farg'onaning yirik savdo va hunarmandchilik markaziga aylangan degan fikrni bildirgan edi va Axsikent yodgorligining loyihasini chizgan, ayrim joylarda qazilma ishlarini

⁸ Турдихўжаева М.М. Aleksandr Natanovich Bernshtamning Farg'ona arxeologiyasi rivojiga qo'shgan hissasi// UzAcademia 25 iyul 2020 B. 33-36

⁹ <https://time.kg/istoricheskie-lichnosti-kyrgyzstana/3193-bernshtam-aleksandr-natanovich.html>

¹⁰ Кожобеков М.Ч. Scientific heritage of A.N. Berstam in the academy of sciences foundations of the kyrgyz republic//Журнал «Инновации в науке» № 7 (68), Часть 1, 2017. –С.19-23

¹¹ Бернштам А.Н., Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая // МИА.

№26.1952; Турдихўжаева М.М. Фарғона водийсида амалга оширилган археологик экспедициялар тарихидан // Фарғона водийси тарихининг долзарб муаммолари . Н-2020. –Б.60-63.

o'tkazgan¹². Keyinchalik 1950-52-yillari faoliyat ko'rsatgan Qirg'iziston, Farg'ona, Pomir va Janubiy Qozog'istondagi sakkizta ekspeditsiyalarida ishtirok etgan A.N.Bernshtam rahbarligida tuzilgan Pomir-Farg'ona kompleks ekspeditsiyasi sobiq SSSR FA tomonidan tashkil etilib, o'z oldiga O'rta Osiyo arxeologiyasi va etnografiyasini o'rganishni asosiy vazifa qilib olgan. Ekspeditsiya a'zolari qadimdan yashab o'tgan o'troq dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan aholi madaniyati, tarixiga doir muhim kashfiyotlar qildilar. Bu ekspeditsiya davriy jihatdan ham, hududiy tomondan ham keng qamrovli ish olib bordi, jumladan, Tyanshan, Pomir, Oloy, Farg'ona kabi yirik geografik nuqtalarda ilk bor arxeologik tadqiqotlar o'tkazdi. Ayniqsa, qadimgi Farg'ona tarixida ma'lum bo'lmagan jez va ilk temir davri arxeologik yodgorliklarining ochilishi ushbu ekspeditsiyaning muhim natijasi deyishimiz mumkin. Bularga Chust shahri yaqinidagi Buonamozor, Andijon viloyati, Jalolquduq tumanidagi Dalvarzin, Andijon viloyati Izboskan tumanidagi Eylaton, Marhamat shahri yaqinidagi Mingtepa kabi arxeologik yodgorliklar kiradi¹³. Bu yodgorliklar O'rta Osiyo tarixida muhim ahamiyatga ega albatta¹⁴. Dovon qirolligi davridagi Farg'onaning iqtisodiyoti, madaniyati va siyosiy tarixining rivojlanishidagi bir qator muammoli masalalarda A.N.Bernshtam tadqiqotlari alohida o'ringa ega¹⁵. A.N.Bernshtam ilk marta vodiy ilk o'rta asrlar madaniyati tarixini ta'riflab berdi¹⁶. Pomir-Oloy(1946-1948)¹⁷ va Pomir-Farg'ona(1950-1952)¹⁸ arxeologik ekspeditsiyalari tekshiruvlari natijasida Kosondagi Mug'qal'a, Axsikent va Pop yaqinidagi bir guruh yodgorliklari (Ayritom, Munchoqtepa, Balantepa) o'rganildi¹⁹. Va ularning natijalari tahlil qilindi. Biz A.N.Bernshtamni Farg'ona vodiysining ilk o'rta asrlar davri madaniyatini kelib chiqishini birinchi marta o'rtaga tashlagan tadqiqotchi deb aytishimiz mumkin. Arxeolog tomonidan Farg'ona vodiysida Farg'ona arxeologik ekspeditsiyasi, Qo'qon-So'x, Xaqulobod, Uchqo'rg'on, Namangan, Uch daryo vodiysidagi Qo'rg'on dashtlarida arxeologik va qazish

¹² Холдоров З. Ахсикент – Фарғона водийси сивилизасиясининг маркази//“Ўзбек давлатчилиги тарихида Ахсикент шаҳрининг ўрни” Н–2018.–Б.33

¹³ Бернштам . А.Н . Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая. М-1952.

¹⁴ Турдихўжаева М.М. Фарғона водийсида амалга оширилган археологик экспедициялар тарихидан // Фарғона водийси тарихининг долзарб муаммолари . Н-2020. –Б.60-63.

¹⁵ Бернштам А.Н. Древняя Фергана. – Ташкент, 1951. Длужневская Г. В археологические исследования В центральной Азии и Сибири в 1859–1959 годах (по документам научного архива института истории материальной культуры РАН) Санкт-Петербург 2011 . –С. 142.

¹⁶ Матбобоев. Б. Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти. Самарқанд- 2009.–Б.14

¹⁷ Yrd. Doç. Dr. Cengiz buyar türk tarihi araştırmacısı olarak A.N. Berngtam ve eserleri// Manas sosyal araştırmalar dergisi 2016. –S.198.

¹⁸ Воропаева В.А. Основоположник научной археологии Кыргызстана (о Бернштаме А.Н.)

<https://time.kg/istoricheskie-lichnosti-kyrgyzstana/3193-bernshtam-aleksandr-natanovich.html>

¹⁹ Горбунова Н.Г. Керамика поселений Ферганы первых веков нашей эры //ТГЭ.Том 20. – Л., 1979. –С.114-145.

joylarini aniqlash bo'yicha 9 ta tadqiqot o'tkazildi²⁰. Bundan tashqari olimning Древняя Фергана nomli asari²¹ Farg'ona vodiysi tarixida muhim ahamiyatga ega. Asar 7 bobdan iborat bo'lib, unda qadimgi Farg'ona madaniyatning kelib chiqishi, Dovon tarixi, Kushon qal'alari, turklar va arablar davrida Farg'ona kabi masalalar yoritilgan. Bundan tashqari A.N. Bernshtam Saymalitosh qoyatosh sur'atlarini ham mahorat bilan o'rgangan, Qirg'izistonning O'sh viloyati g'arbiy mintaqalarida qidiruv ishlarini olib borgan. Farg'ona va Namangan viloyati, shuningdek, Marhamatning qadimgi shaharchasi, Gurmiron qabristonlari, Oqbayit qabristoni va Oloy vodiysi tog'larida qazish ishlarini amalga oshirgan. Bernshtam ishtirok etgan ekspeditsiyaning hisobot hujjatlari O'zbekiston SSR va Qirg'iziston SSR Tarix institutining mablag'lari bilan to'ldirilgan²².

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, A. N. Bernshtam hayoti davomida 180 ga yaqin maqola va kitoblar chop qildi. va u turli jurnal va gazetalarda 70 ga yaqin eslatmalar va yangiliklar maqolalarini nashr etdi. Aytish lozimki, uning ba'zi asarlari tugallangan bo'lsa, ba'zilari tugallanmagan, chop etilmagan. Bernshtam o'z davrida nashr etilgan asarlarni diqqat bilan kuzatib borgan va tarix sohasidagi ko'plab asarlarni tanqid qila olgan. Uning Farg'ona vodiysi arxeologiyasidagi e'lon qilgan tadqiqotlari va tekshiruv natijalari bugungi kunda o'z ahamiyatini hali yo'qotmadi. Uning ilmiy tadqiqotlari Farg'ona vodiysi arxeologiyasidagi o'z yechimini kutayotgan muammolarni o'rganishda muhim manba bo'lib hizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Александр Натанович Бернштам. Краткие сообщения. о докладах и полевых исследованиях института истории материальной культуры. 80.Москва-1960.
2. Бернштам . А.Н . Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая. Москва-1952.
3. Бернштам А.Н., Древняя Фергана. Ташкент-1951.
4. Длужневская Г. В археологические исследования В центральной Азии и Сибири в 1859–1959 годах (по документам научного архива института истории материальной культуры ран) Санкт-Петербург-2011.

²⁰ Длужневская Г. В археологические исследования В центральной Азии и Сибири в 1859–1959 годах (по документам научного архива института истории материальной культуры ран) Санкт-Петербург 2011 . –С.130-131.

²¹ Бернштам А.Н., Древняя Фергана. – Ташкент, 1951. 45 с.

²² Длужневская Г.В. Археологические исследования в Центральной Азии и Сибири в 1859–1959 годах (по документам научного архива института истории материальной культуры ран) Санкт-Петербург 2011 .С. 42; Турдихўжаева М.М. Farg'ona vodiysi arxeologik ekspeditsiyalar tarixshunosligi//Scientific progress.№5 Т.2021 – В.262-267

5. Заднепровский Ю. А. Александр Натанович Бернштам // КСИИМК. Москва-1960. Вып. 80.
6. Свиридов. А.Н. Эволюция взглядов А.Н. Бернштама на проблемы культурогенеза в Южном Казахстане и Средней Азии. *Хроника, библиография, историография известия наук серия общественных наук. Москва-2010. № 1.*
7. Yrd. Doç. Dr. Cengiz Buyar .Türk tarihi araştırmacısı olarak a.n. Bernştam ve eserleri// Manas sosyal araştırmalar dergisi. Киргизтан- 2016.
8. Холдоров. З Ахсикент-Фарғона водийси сивилизасиясининг маркази//Ўзбек давлатчилиги тарихида Ахсикент шахрининг ўрни мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари (2018 йил 10 ноябрь, Наманган, Ўзбекистон) Наманган-2018.
9. Матбобоев Б.Х., Қадимги Фарғонанинг илк ўрта асрлар даври маданияти (V-VIII асрлар археологик манбаларининг тарихий таҳлили асосида): т.ф.д., дисс.- Самарқанд, 2009.
10. Турдихўжаева М.М. Фарғона водийсида амалга оширилган археологик экспедициялар тарихидан // Фарғона водийси тарихининг долзарб муаммолари . Н-2020. –Б.60-63.
11. Турдихўжаева М.М. Aleksandr Natanovich Bernshtamning Farg‘ona arxeologiyasi rivojiga qo‘shgan hissasi// UzAcademia 25 iyul 2020 В. 33-36